

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANLARI BOSHLANG'ICH  
SINFLARDA O'QUV JARAYONLARINING PRINSPLARI**

*Ergasheva Mohirabonu Mirzohidjon qizi*

*19-umumta'l'm maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Ergasheva Mohigul Muzaffarjon qizi*

*Mirzaboyeva Saidaxon Nazirjonovna*

*Buvayda tumani qo'ng'irot qishlog'i 18-maktab*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining ahamiyati va mazmuni xususidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim, onglilik, mustahkamlilik, til, jamiyat, nutq, o'qish yozish malakalari.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinalarni ifodalashda muhim o'rinni tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilaming o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir" [1], — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikm -malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiyligi kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rinni tutadi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilam ing ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga riosa qilingan savodli yozuvni, to 'g 'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nika va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar belgilangan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmavdi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi. O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushslash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq. O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga

kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim. Umuman xulos qilganda, o'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. — Toshkent: O'zdavnashr", 1959 .
2. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992. 4.
3. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 1999.
4. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlaii (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „O'qituvchi", 1997.
5. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 2000